

**Moliyaviy qiyinchiliklarga va murakkab hayotiy vaziyatlarga
tushib qolish hamda fors-major holatlar tufayli o‘z vaqtida kredit
to‘lovlarini amalga oshirishga qiynalayotgan qarzdorlarning/mijozlarning
amaldagi kreditlari bo‘yicha kredit shartnomasi shartlariga o‘zgartirish va
qo‘shimchalar kiritish haqidagi arizalarini ko‘rib chiqish
TARTIBI**

Muqaddima

1-§. Umumiy qoidalar

2-§. Kredit shartnomasi shartlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) turlari

3-§. Kredit shartnomasi shartlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishga (restrukturizatsiyaga) asos bo‘ladigan moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar hamda fors-major holatlari ro‘yxati

4-§. Qarzdorning/mijozning arizasini qabul qilish va ro‘yxatga olish tartibi hamda arizaga ilova qilinadigan hujjatlar

5-§. Qarzdorlarning/mijozlarning arizalarini ko‘rib chiqish muddati

6-§. Qabul qilingan arizalarni ko‘rib chiqish va baholash mezonlari. Homiladorlik va tug‘ish ta‘tilini olgan ayolning amaldagi krediti bo‘yicha to‘lovlar muddatini o‘n oygacha uzaytirish haqidagi arizasini ko‘rib chiqish

7-§. Ariza bo‘yicha bank tomonidan ijobiy yoki rad etish qarori qabul qilinganligi haqida qarzdorga/mijozga xabar berish tartibi va muddati

8-§. Ariza qanoatlantirilgan taqdirda kredit shartnomasi hamda uning ilovalariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish

9-§. Yakuniy qoidalar.

Mazkur Tartib ““Bank xizmatlari iste‘molchilari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to‘g‘risida nizom” kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar”ning (*Adliya vazirligi tomonidan 2025 yil 28 oktabrda 3030-11-son bilan ro‘yxatga olingan*) 2-bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida” qonuni asosida ishlab chiqildi va u “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki (keyingi o‘rinlarda – Bank) tomonidan moliyaviy qiyinchiliklarga va murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolish hamda fors-major holatlari tufayli o‘z vaqtida kredit to‘lovlarini amalga oshirishga qiynalayotgan qarzdorlarning/mijozlarning amaldagi kreditlari bo‘yicha kredit shartnomasi shartlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi arizalarini ko‘rib chiqish tartibini belgilaydi.

1-§. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartibda quyidagi atamalar ishlatiladi:

Bosh bank – Bank boshqaruvi apparati;

bank xizmatlari ofisi – Bankning Amaliyot boshqarmasi va bank xizmatlari ofislari;

kredit tushunchasi kreditning o‘zidan tashqari moliyaviy lizing, faktoring, qarz, mikroqarz, balansdan tashqari majburiyatlar (bank kafolati va kafilliklari), kredit tavakkalchiligi mavjud bo‘lgan boshqa pul operatsiyalarini, jumladan import kontrakti bo‘yicha maqsadli moliyalashtiriladigan akkreditiv operatsiyasini ham o‘z ichiga oladi;

qarzdor/mijoz – Bankdan kreditni olgandan so‘ng moliyaviy qiyinchiliklarga va murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolish hamda fors-major holatlari tufayli o‘z vaqtida kredit to‘lovlarini amalga oshirishga qiynalayotganligi uchun kredit shartnomasi shartlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishni so‘rab bank xizmatlari ofisiga (vakolatli bank xizmatlari markaziga) yozma (elektron) murojaat qilgan yuridik shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor, jismoniy shaxs);

Bank xizmatlari ofisining kreditlash bo‘linmasi – bank xizmatlari ofisining Kreditlash /Chakana biznes bo‘limi bo‘lib, u tegishliligi bo‘yicha ajratilgan kredit bo‘yicha to‘lovlarni moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar yoki fors-major holatlari tufayli o‘z vaqtida amalga oshirishda qiynalayotgan qarzdorning/mijozning amaldagi kredit shartnomasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha murojaatini (arizasini) o‘rganib chiqadi, xulosa (bildirishnoma) tayyorlaydi va uni Bank xizmatlar ofisi kredit komissiyasi muhokamasiga kiritadi, murojaat (ariza) bo‘yicha ijobiy qaror qabul qilinganda tegishli amaliyotlar bajarilishini ta’minlaydi;

Bosh bankning kreditlash bo‘linmasi – Bosh bankning Kreditlash departamenti, Investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish va loyihalarni boshqarish markazi, Loyihalarni xorijiy kredit liniyalari hisobidan moliyalashtirish boshqarmasi hamda Chakana biznes departamenti bo‘lib, u tegishliligi bo‘yicha ajratilgan kredit bo‘yicha to‘lovlarni moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar yoki fors-major holatlari tufayli o‘z vaqtida amalga oshirishda qiynalayotgan qarzdorning/mijozning amaldagi kredit shartnomasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha bank xizmatlari ofisi murojaatini tegishliligi bo‘yicha o‘rganib chiqadi, xulosa (bildirishnoma) tayyorlaydi va Bosh bank kredit komissiyasining yoki Bank boshqaruvining/Bank kuzatuv kengashining muhokamasiga kiritadi, murojaat (ariza) bo‘yicha ijobiy qaror qabul qilinganda bank xizmatlari ofisi tomonidan tegishli amaliyotlar bajarilishini nazorat qiladi;

xulosa (bildirishnoma) – qarzdor/mijoz moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar yoki fors-major holatlari tufayli ajratilgan kredit bo‘yicha kredit to‘lovlarini o‘z vaqtida amalga oshirishda qiynalayotgan amaldagi kredit shartnomalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi qarzdorning/mijozning yozma (elektron) murojaati (arizasi) asosida Bank xizmatlari ofisining kreditlash bo‘linmasi xodimi va boshlig‘i (vakolatli bank xizmatlari markazining kredit mutaxassisi va bank xizmatlari markazi boshlig‘i) tomonidan tayyorlangan va imzolangan, Bank xizmatlari ofisi kredit komissiyasida ko‘rib chiqilishi uchun taqdim etilgan

hujjat. Agar ajratilgan kredit Bosh bank kredit komissiyasi (Bank Boshqaruvi/Bankning kuzatuv kengashi) tomonidan ma'qullangan bo'lsa, kredit shartnomasiga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish masalasini dastlabki bosqichda ko'rib chiqqan Bank xizmatlari ofisi kredit komissiyasining qarori va ushbu masalaga tegishli hujjatlar Bosh bankka taqdim etilgandan so'ng xulosa (bildirishnoma) Bosh bankning kreditlash bo'linmasi tomonidan tayyorlanadi, Bosh bankning kreditlash bo'linmasi rahbari, uning o'rinbosari, mas'ul ichki tarkibiy tuzilma boshlig'i hamda uni tayyorlagan xodim tomonidan imzolanadi va Bosh bank kredit komissiyasida (Bank Boshqaruvi/Bankning kuzatuv kengashida) ko'rib chiqilishi uchun taqdim etiladi. Muammoli deb tasniflangan aktiv (NPL) bo'yicha kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish kiritish masalasi Bankning muammoli aktivlar bilan ishlash siyosatiga binoan tegishli departamentlar tomonidan xulosa (bildirishnoma) tayyorlanadi.

2. Kredit muddati davomida qarzdorning/mijozning yozma (elektron) murojaatiga (arizasiga) ko'ra, Bankning kredit siyosatiga muvofiq, kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga ruxsat beriladi.

3. Bank tomonidan moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar hamda fors-major holatlari tufayli ajratilgan kredit bo'yicha to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirishda qiynalayotgan qarzdorning/mijozning amaldagi kredit shartnomasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish qarzdor/mijoz ish faoliyatini tiklashda yordam berish va qarz yukini yengillashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

2-§. Kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) turlari

4. Moliyaviy qiyinchiliklarga va murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolish hamda fors-major holatlari tufayli o'z vaqtida kredit to'lovlarini amalga oshirishga qiynalayotgan qarzdorning/mijozning kredit shartnoma shartlariga quyidagicha qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin:

- a) kreditning imtiyozli davrini uzaytirish;
- b) kreditning oxirgi muddatini uzaytirish;
- d) kredit imtiyozli davrini va/yoki oxirgi muddatini o'zgartirmasdan kreditni qaytarish jadvalini o'zgartirish;
- e) foiz stavkasini vaqtinchalik yoki kredit qaytarish sanasigacha pasaytirish;
- f) kredit to'lovlari kechiktirilganligi uchun jarima va penya miqdorini kamaytirish;
- g) individual shartlar asosida boshqa yengilliklar.

3-§. Kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga (restrukturizatsiyaga) asos bo'ladigan moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar hamda fors-major holatlari ro'yxati

5. Qarzdorning/mijozning kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar

kiritishga asos bo'ladigan moliyaviy qiyinchiliklar va murakkab hayotiy vaziyatlarga quyidagilar kiradi:

- a) ikki oydan ortiq davr mobaynida vaqtincha mehnatga layoqatsiz bo'lib qolishi;
- b) mehnat shartnomasi bekor qilinishi va ish qidirayotgan shaxs sifatida tuman (shahar) kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limida ro'yxatga olinishi;
- d) qarzdorning/mijozning birgalikda qarzdor va (yoki) kafili bo'lgan turmush o'rtog'i vafot etishi;
- e) I yoki II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar qarzdorning/mijozning qaramog'iga olinishi yoki uning qaramog'idagi I yoki II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar sonining ortishi;
- f) homiladorlik va tug'ish ta'tiliga chiqishi.

6. Kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga asos bo'ladigan fors-major holatlariga quyidagilar kiradi:

- a) zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik, suv toshqinlari va boshqa tabiat hodisalari;
- b) ommaviy noroziliklar namoyishi, urush holati, qamal, davlat manfaatini ko'zlab import va/yoki eksportni taqiqlash, xalqaro sanksiyalarning joriy etilishi va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy holatlar;
- d) epidemiya, pandemiya va karantin kabi favqulodda tibbiy holatlar;
- e) yongin, portlash va boshqa texnogen ofatlar;
- f) transport, energetika va boshqa infratuzilma tizimlaridagi kutilmagan avariylar.

7. Moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar yoki fors-major holatlarida kredit shartnomalariga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish Bosh bank kredit komissiyasi va Bankning kredit siyosatida belgilangan vakolat darajasidan kelib chiqib kredit ajratishni ma'qullagan tegishli organ (Bank boshqaruvi, Bankning kuzatuv kengashi) ruxsati bilan amalga oshiriladi.

8. Shartlari qayta ko'rib chiqilgan kredit "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida nizom" (*Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 14 iyulda 2696-son bilan ro'yxatga olingan*) talablariga binoan tasniflanadi.

Bank qarzdorning/mijozning murojaatiga (arizasiga) ko'ra kredit shartnomasi muddati mobaynida to'lovlar muddati birinchi marotaba quyidagi holatlar natijasida kechiktirilganda yoki uzaytirilganda "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida nizom"ning (*Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 14 iyulda 2696-son bilan ro'yxatga olingan*) 33-8-bandiga muvofiq kredit tasnifi o'zgartirilmaydi va shartlari qayta ko'rib chiqilgan aktivlar deb tasniflanmaydi:

- a) qarzdorning/mijozning ikki oydan ortiq davr mobaynida vaqtincha mehnatga layoqatsiz

bo‘lib qolishi;

b) qarzdorning/mijozning mehnat shartnomasi bekor qilinishi va ish qidirayotgan shaxs sifatida tuman (shahar) kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limida ro‘yxatga olinishi;

d) qarzdorning/mijozning birgalikda qarzdori va/yoki kafili bo‘lgan turmush o‘rtog‘i vafot etishi;

e) I yoki II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar qarzdorning/mijozning qaramog‘iga olinishi yoki uning qaramog‘idagi I yoki II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar sonining ortishi;

f) qarzdorga/mijozga nisbatan nogironlikning I yoki II guruhi belgilanishi;

g) tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi;

h) qarzdorning/mijozning homiladorlik va tug‘ish ta‘tiliga chiqishi.

Bunda ushbu band ikkinchi qismining “a” va “b” kichik bandlarida nazarda tutilgan holatlar yuzasidan qarzdor/mijoz tomonidan kredit shartnomasi bo‘yicha to‘lovlar muddatini kechiktirish yoki uzaytirish to‘g‘risida Bankka murojaat qilinganda mazkur murojaat sanasidan oldingi ikki oy davomida qarzdorning/mijozning o‘rtacha oylik daromadi so‘nggi o‘n ikki oy ichidagi o‘rtacha oylik daromadiga nisbatan kamida 30 foizga kamaygan bo‘lishi lozim.

Mazkur band ikkinchi qismining “a”, “b”, “d”, “e”, “f”, “g” va “h” kichik bandlarida belgilangan holatlar qarzdor/mijoz kredit shartnomasi bo‘yicha to‘lovlar muddatini kechiktirish yoki uzaytirish yuzasidan Bankka murojaat qilgan sanadan oldingi to‘rt oy ichida ro‘y bergan bo‘lishi lozim.

Kredit tasnifi o‘zgartirilmasligi va shartlari qayta ko‘rib chiqilgan aktivlar deb tasniflanmasligi uchun kredit shartnomasi bo‘yicha to‘lovlar mazkur band ikkinchi qismining:

a) “a”, “b”, “d”, “e”, “f” va “g” kichik bandlarida belgilangan holatlarda 6 oydan;

b) “h” kichik bandida belgilangan holatda 10 oydan ko‘p bo‘lmagan muddatga uzaytirilgan yoki kechiktirilgan bo‘lishi lozim.

Bank qarzdorning/mijozning murojaatiga ko‘ra kredit shartnomasi bo‘yicha to‘lovlar muddatini kechiktirish yoki uzaytirishda qarzdor/mijoz tomonidan taqdim etilgan tasdiqlovchi hujjatlar yoki boshqa ma‘lumotlardan foydalanishi mumkin. Bunda Bank mazkur ma‘lumotlar haqqoniyligini tekshirish choralarini ko‘rishi lozim.

4-§. Qarzdor/mijoz murojaatini (arizasini) qabul qilish va ro‘yxatga olish tartibi hamda arizaga ilova qilinadigan hujjatlar

9. Qarzdor/mijoz moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar yoki fors-majior holatlari tufayli ajratilgan kredit bo‘yicha to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirishda qiynalayotganda amaldagi kredit shartnomasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yuzasidan yozma (elektron) murojaat (ariza) bilan Bankka quyidagi tartibda taqdim etilishi mumkin:

a) bevosita bank xizmatlari ofisi (vakolatli bank xizmatlari markazi) devonxonasiga topshirish;

b) UzPost orqali qog'oz shaklida jo'natish;

d) Bankning rasmiy telegram-kanaliga (t.me/trustbank.uz) yuborish;

e) Bankning elektron pochta (info@trustbank.uz) yuborish.

10. Qarzdorning/mijozning yozma (elektron) murojaati (arizasi) Bankning elektron hujjat aylanish tizimida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Qarzdor/mijoz murojaati (arizasi), unga ilova qilingan hujjatlar bilan birga, Bankning elektron hujjat aylanish tizimi orqali Bank xizmatlari ofisining kreditlash bo'linmasiga ko'rib chiqish uchun yuboriladi. Bank xizmatlari ofisining kreditlash bo'linmasi xodimi qarzdor/mijoz murojaatini (arizasini) "Bank xizmatlari ofisida kredit (lizing) arizalarini ro'yxatga olish jurnali"ga qayd qiladi.

11. Qarzdor/mijoz murojaatida (arizasida) quyidagi ma'lumotlar aks ettirilishi lozim:

a) oluvchi [bank xizmatlari ofisi (vakolatli bank xizmatlari markazi) nomi va rahbari];

b) qarzdor/mijoz haqida ma'lumotlar: xo'jalik yurituvchi subyekt nomi, yuridik manzili, STIR, rahbarning ismi va familiyasi, elektron pochta manzili (jismoniy shaxs bo'lsa: ismi, otasining ismi va familiyasi, yashash manzili, pasport ma'lumotlari, aloqa telefon raqami, elektron pochta manzili);

d) murojaatni (arizani) ko'rib chiqish natijasi bo'yicha Bankdan javob olishning afzal usuli: Call-markaz xodimining qo'ng'irog'i, SMS-xabarnoma, qog'ozga yozilgan javob, rasmiy t.me/trustbank.uz telegram-kanalidan elektron xat;

d) qarzdordagi/mijozdagi moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar yoki fors-major holatlarining kelib chiqish sabablarini aniq ko'rsatish;

e) moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar yoki fors-major holatlaridan kelib chiqib amaldagi kredit shartnomasi shartlariga qaysi turdagi o'zgartirish kiritilishi aniq yozish.

12. Qarzdor/mijoz murojaatiga (arizasiga) quyidagi ma'lumotnomalar (hujjatlar) ilova qilinadi:

a) moliyaviy qiyinchiliklar va murakkab hayotiy vaziyatlarga duch kelinganda:

ikki oydan ortiq davr mobaynida vaqtincha mehnatga layoqatsiz bo'lganligini tasdiqlovchi hujjat;

mehnat shartnomasi bekor qilinganligi haqidagi buyruq nusxasi va ish qidirayotgan shaxs sifatida tuman (shahar) kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limida ro'yxatga olinganligini tasdiqlovchi hujjat;

qarzdorning/mijozning birgalikda qarzdor va/yoki kafili bo'lgan turmush o'rtog'i vafot etganligi haqidagi ma'lumotnoma;

I yoki II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar qarzdor/mijoz qaramog'iga olinganligini yoki uning qaramog'idagi I yoki II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar sonining ko'payganligini tasdiqlovchi hujjat;

homiladorlik va tug'ish ta'tiliga chiqqanligini tasdiqlovchi hujjatlar;

ushbu Tartibning 5-bandida qayd etilgan holatlarni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar;

b) fors-major holatiga duch kelganda:

Savdo-sanoat palatasining fors-major sertifikati;

fors-major holatining turiga qarab tegishli davlat organining rasmiy xulosasi.

13. Kredit shartnomasining birlamchi shartlari (imtiyozli davri, kreditni so'ndirish muddati, foiz stavkasi) o'zgarishi munosabati bilan qarzdor/mijoz kreditlash davriga faoliyatidan ko'riladigan foyda (zarar) va pul tushumi (pul oqimi) prognozi kiritilgan biznes-rejani taqdim etadi. Qarzdor/mijoz biznes rejada normal faoliyatini tiklash rejasini aks ettirish lozim.

14. Bank qarzdorning/mijozning duch kelgan moliyaviy qiyinchilik yoki murakkab hayotiy vaziyat yoxud fors-major) holatlaridan kelib chiqib, qarzdordan/mijozdan ushbu Tartibda ko'rsatilmagan boshqa hujjatlarni ham talab qilishi mumkin.

15. Bank kredit shartnomasi shartlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar turidan kelib chiqib qarzdorning/mijozning kredit ta'minotiga va/yoki kredit shartnomasining boshqa shartlariga Bankning ichki normativ hujjatlariga binoan talablar qo'yishi mumkin.

5-§. Qarzdorlarning/mijozlarning arizalarini ko'rib chiqish muddati

16. Moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar yoki fors-major holatlari tufayli ajratilgan kredit bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishda qiynalayotgan qarzdorning/mijozning amaldagi kredit shartnomasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha qarzdor/mijoz murojaati (arizasi) bank xizmatlari ofisiga (vakolatli bank xizmatlari markaziga) rasman kelib tushgandan boshlab 15 bank ish kunida ko'rib chiqiladi.

Bunda qarzdorning/mijozning murojaati (arizasi) quyidagi bosqichlarda ko'riladi:

a) bank xizmatlari ofisining kreditlash bo'linmasida ko'rib chiqish muddati: 3 bank ish kuni;

b) Bank xizmatlari ofisi kredit komissiyasida ko'rib chiqish muddati: 3 bank ish kuni;

d) Bosh bank kredit komissiyasida ko'rib chiqish muddati: 3 bank ish kuni;

e) Bank boshqaruvida/Bankning kuzatuv kengashida ko'rib chiqish muddati: 4 bank ish kuni;

f) murojaatga (arizaga) rad javobi berilganda qarzdorga/mijozga xabar berish muddati: 2 bank ish kuni.

6-§. Qabul qilingan arizalarni ko'rib chiqish va baholash mezonlari.

Homiladorlik va tug'ish ta'tilini olgan ayolning amaldagi krediti bo'yicha to'lovlar muddatini o'n oygacha uzaytirish haqidagi arizasini ko'rib chiqish

17. Bank xizmatlari ofisining kreditlash bo'linmasi mas'ul xodimi tomonidan quyidagilar

amalga oshiriladi:

a) moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar yoki fors-major holatlarida kredit shartnomasiga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish haqidagi murojaati (arizasi) va unga ilova qilingan hujjatlar Bankning elektron hujjat aylanish tizimi orqali qabul qilinadi (*hujjatlar belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan bo'lsa, ularda shubhali ma'lumotlar mavjud bo'lganda yoki ayrim hujjatlar yetishmasa, kamchiliklarni yozma bayon etgan holda, hujjatlarni qarzdorga/mijozga qaytarib yuborishga haqli hisoblanadi*);

b) Kredit byurosidan qarzdorning/mijozning kredit tarixiga oid ma'lumotnoma olinadi;

d) kredit bo'yicha qabul qilingan ta'minot tahlil qilinadi (Garov reestridan ma'lumotnoma olinadi, kafilning buxgalteriya balansi tahlil qilinadi);

e) kreditning tasnifi o'rganiladi;

f) kredit bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjudligi aniqlanadi;

g) ushbu Tartbning 4-bobida ko'rsatilgan qarzdor/mijoz tomonidan taqdim etilgan hujjatlar o'rganiladi;

h) amalga oshirilgan tahlil asosida xulosa (bildirishnoma) tayyorlanadi va rasmiylashtiriladi;

i) xulosa (bildirishnoma), qarzdor/mijoz murojaati (arizasi), unga ilova qilingan hujjatlar to'plami Bank xizmatlari ofisi kredit komissiyasida (anderrayterda) ko'rib chiqilishi uchun taqdim etiladi.

18. Bank xizmatlari ofisi kredit komissiyasi (anderrayter) moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar yoki fors-major holatlari tufayli ajratilgan kredit bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishda qiynalayotgan qarzdorning/mijozning amaldagi kredit shartnomasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

19. Bank xizmatlari ofisi kredit komissiyasi tomonidan moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar yoki fors-major holatlari tufayli ajratilgan kredit bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishda qiynalayotgan qarzdorning/mijozning amaldagi kredit shartnomasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida ijobiy qaror qabul qilinganda, masalani Bosh bank kredit komissiyasi (Bank boshqaruvi/Bankning kuzatuv kengashi) tomonidan ko'rib chiqiladi.

20. Homiladorlik va tug'ish ta'tiliga chiqqan qarzdor/mijoz-ayol moliyaviy qiyinchilik tufayli ajratilgan kredit bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishda qiynalayotgan bo'lsa, to'lovlar muddatini 10 oygacha uzaytirish, asosiy qarzni vaqtincha to'xtatib, faqat foiz to'lash masalasida ariza bilan bank xizmatlari ofisiga (vakolatli bank xizmatlari markaziga) murojaat qilishi mumkin.

Bunda qarzdor/mijoz-ayol o'z arizasiga quyidagi hujjatlarni ilova qiladi:

a) homiladorlik va tug'ish ta'tiliga chiqqanligi haqida buyruq nusxasi;

b) tibbiy ma'lumotnoma;

- d) daromad vaqtincha to'xtatilganligini tasdiqlovchi hujjat;
- e) kredit shartnomasi nusxasi.

7-§. Ariza bo'yicha bank tomonidan ijobiy yoki rad etish qarori qabul qilinganligi haqida qarzdorga/mijozga xabar berish tartibi va muddati

21. Moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar yoki fors-major holatlari tufayli ajratilgan kredit bo'yicha to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirishda qiynalayotgan qarzdorning /mijozning amaldagi kredit shartnomasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha qarzdor/mijoz murojaati (arizasi) bo'yicha Bank tomonidan ijobiy yoki rad etish qarori qabul qilinganda qarzdor/mijoz 2 bank ish kuni quyidagi tartibda xabardor qilinadi:

- a) telefon qo'ng'irog'i, SMS-xabarnoma yoki mobil-ilova orqali;
- b) qarzdorning/mijozing yuridik/yashash manzilga yozma xat yuborish orqali;
- d) qarzdorning/mijozing elektron pochta-siga xabar yuborish orqali.

8-§. Ariza qanoatlantirilgan taqdirda kredit shartnomasi hamda uning ilovalariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish

22. Moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar yoki fors-major holatlari tufayli ajratilgan kredit bo'yicha to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirishda qiynalayotgan qarzdorning /mijozning amaldagi kredit shartnomasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha ijobiy qaror qabul qilingandan so'ng, Bank xizmatlari ofisining kreditlash bo'linmasi xodimi tomonidan quyidagi amaliyotlar amalga oshiriladi:

- a) kredit shartnomasiga o'zgartirish va/yoki qo'shimcha kiritish haqida qo'shimcha bitim loyihasi tayyorlanadi va rasmiylashtiriladi;
- b) agar zaruriyat bo'lsa, kredit ta'minoti hujjatlariga ham belgilangan tartibda tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi, rasmiylashtirilishi va bank xizmatlari ofisiga taqdim etilishini nazorat qiladi;
- d) IABS dasturida: kredit kartochkasi bandlariga tegishli o'zgartirish kiritiladi, zarur bo'lgan holda 94501 (94502, 94503)-balansdan tashqari hisobvaraqa va/yoki kredit hisobvaraqlarida tegishli amaliyotlar o'tkaziladi, kredit kartochkasining ta'minot qismiga va Garov reestr-dagi yozuvlarga o'zgarishlar kiritiladi.

9-§. Yakuniy qoidalar

23. Ushbu Tartib normalari ichki va tashqi omillarga doimo moslashtirib borilishi, o'zgartirilishi, aniqlik kiritilishi va takomillashtirilishi mumkin.

24. Ichki audit departamenti Bosh bankda (bank xizmatlari ofisida) taftish o'tkazish paytida moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar yoki fors-major holatlari tufayli ajratilgan kredit bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishda qiynalayotgan qarzdorning/mijozning amaldagi kredit shartnomasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishda ushbu Tartibga amal qilinganligini tekshiradi.

